GRASPS VAZIFALARIDAN FOYDALANIB HAQIQIY BAHOLASHNI AMALGA OSHIRISH (3-AMALIY MASHG‘ULOT).

Maqsad va kutilayotgan natijalar: O‘quv jarayoni samaradorligini ko‘rsatuvchi GRASPS modeli va u asosida haqiqiy ishlash vazifalari yaratish, haqiqiy baholashni amalga oshirish uchun GRASPS vazifalaridan foydalanishni o‘rganish va ta’lim muassasalari o‘qituvchilariga o‘rgatish.

Reja

1. GRASPS qolipi.
2. GRASPS - ta’lim samaradorligini baholash modeli.



Amaliyotsiz bilim foydasizdir.
Bilimsiz amaliyot esa xavflidir.

Konfutsiy

GRASPS vazifasiga misol:

Siz suzish-cho‘milish havzasida qutqaruvchisiz. Siz cho‘milish havzasiga kelganlarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirishga, suzish-cho‘milish havzasida xavfsizlikni ta’minlashga va eng muhimi cho‘kayotganlarni tez va aniqlik bilan qutqarishga mas'ulsiz. Siz cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha aniq va TO‘liq harakatlar rejangizni ishlab chiqing va u batafsil, TO‘liq qo‘llab- quvvatlanadigan tavsiyalarni o‘z ichiga olishi kerak.

GRASPS qolipi:

G (maqsad) – (ssenariy bo‘yicha) cho‘kayotgan bolani qutqarish.

R (rol) – o‘quvchi qutqaruvchilar guruhi a’zosi.

A (maqsadli auditoriya) – suzish-cho‘milish havzasi.

S (vaziyat) – suzishni endi o‘rganayotgan va ehtiyotsizlik oqibatida cho‘kayotgan bola.

P (mahsulot) – cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha batafsil, aniq va TO‘liq qo‘llab-quvvatlanadigan tavsiyalarni o‘z ichiga olgan harakatlar rejasi.

S (muvaffaqiyat mezonlari) - cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha aniq standartlar va mezonlar.

O‘xshash vaziyatlar:

Baliqchilar suvda baliqlarni nayza bilan qanday ovlashlarini, kamonchi baliqlar o‘ljalarini qanday tutishlarini tushuntiring.



SCAN ME

Nayza bilan baliq ovlash: https://www.youtube.com/watch?v=asoAAIXy2xo



SCAN ME

Kamonchi baliqning ov qilishi: https://www.youtube.com/watch?v=S4G_MeUUZlI

GRASPS nima o‘zi?

GRASPS bu ta’lim samaradorligini baholash modeli. Ta’lim samaradorligi ta’lim oluvchining mavjud bilimlarni haqiqatda tushunish va kundalik faoliyatda foydalanish sifati bilan o‘lchanadi. GRASPS modeli hayotiy (real) vaziyatlar orqali muammoli vazifalar (haqiqiy ishlash vazifalari)ni yaratish va ularni hal qilishni nazarda tutadi. GRASPS loyihaga asoslangan ta’lim uchun asos yaratadi. U quyidagi 6 bosqichdan iborat:

GRASPS	
Goal (maqsad)	muammo yoki maqsadni aniqlash
Role (rol)	o‘quvchining rolini aniqlash
Audience (auditoriya)	maqsadli auditoriyani aniqlash
Situation (vaziyat)	maqsadning konteksti yoki ssenariysi

Product or performance (mahsulot yoki natija)	nima yaratilmoqda va u nima uchun yaratiladi
Standarts and Criteria (standart va mezonlar)	muvaffaqiyat standartlari va mezonlari aniqlanadi

GRASPS vazifalaridan foydalanib haqiqiy baholashni amalga oshiring.

Tushunishga yordam beradigan haqiqiy ishlash vazifasini qanday yaratishim mumkin?

Buning uchun GRASPSdan foydalaning!

G	o‘quvchilar qanday vazifani bajarishlari kerak?
R	o‘quvchining vazifadagi roli qanaqa?
A	maqsadli auditoriya kimlardan iborat?
S	Kontekst nima? Muammo nimada?
P	o‘quvchilar nimani yaratadilar/o‘rganadilar/rivojlantiradilar?
S	muvaffaqiyat standartlari va mezonlari qanday baholanadi?

Esda saqlang: Vazifalarni ishlab chiqishda real muammolardan foydalaning.

Demak, SIZ **GRASPS vazifalarini yaratishda:**

G	**Vazifa bayonnomasini taqdim eting. Vazifada maqsad, muammo, qiyinchilik yoki TO‘siqlarni aniq belgilang.**
R	O‘quvchilarning vazifani bajarishdagi rolini aniqlang. O‘quvchilarga topshiriqdagi aniq vazifasi va amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishini ayting.
A	Ssenariy kontekstida maqsadli auditoriyani aniqlang. Masalan, auditoriya mijoz, qo‘mita yoki guruhni o‘z ichiga olishi mumkin.
S	Ssenariy kontekstini bayon eting. Vaziyatni tushuntiring.
P	O‘quvchilar nimani va nima uchun yaratishini aniqlang.
S	O‘quvchilarga muvaffaqiyat haqida aniq tasavvur bering. Muvaffaqiyatga olib boruvchi maxsus standartlarni aniqlang.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar

Avtohalokatda qon yo‘qotgan kishiga donorlik qilish yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sintetik yelim o‘rniga uy sharoitida sun’iy yelim tayyorlab berish bo‘yicha haqiqiy ishlash vazifalarini GRASPS modeli asosida tushuntiring.

3-amaliy mashg‘ulot.

Mashg‘ulot uchun ko‘rsatmalar:

- Har biri 4-6 a’zodan iborat kichik guruhlar hosil qiling.
- 5 ta fan sohalaridan biridan GRASPS ishlash vazifasini tanlang.
- Guruh rahbari, yozib turuvchi, vaqt nazoratchisi va savol beruvchi rollarini tayinlang.
- Mahsulot va ishlab chiqqan muvaffaqiyat standartlaringiz bo‘yicha taqdimot tayyorlang va himoya qiling.

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti umumta’lim maktablarida fanlarni o‘qitishga yangicha yondashuvni, o‘quvchilarning ushbu fanlardan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qo‘ymoqda.

Bugungi kunga kelib, o‘quv axborotlari hajmining haddan tashqari ko‘payib ketganligi o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni “o‘qish va o‘rganishga o‘rgatish”ni talab qilyapti. Jadallik bilan o‘zgarib va rivojlanib borayotgan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko‘rsatish va yashash o‘quvchilardan nafaqat shunchaki tayyor bilimlarni o‘zlashtirishni, balki turfa ko‘rinishdagi ma’lumotlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlashni hamda ulardan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

O‘quv jarayoni samaradorligini ko‘rsatuvchi GRASPS modeli va u asosida yaratilayotgan haqiqiy ishlash vazifalari esa aynan o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo‘llashga qaratilgan. Zero bugungi maktablarning o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarni hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

Moslikni toping: GRASPS vazifasini bosqichlarini to‘g‘ri moslashtiring.

1	**G**	A	**maqsadli auditoriyani aniqlash**
2	**R**	B	**maqsadning konteksti yoki ssenariysi**
3	**A**	D	**nima yaratilmoqda va u nima uchun yaratiladi**
4	**S**	E	**muammo yoki maqsadni aniqlash**
5	**P**	F	**muvaffaqiyat standartlari va mezonlari aniqlanadi**
6	**S**	G	**o‘quvchining rolini aniqlash**
1	**G**	A	**maqsadli auditoriyani aniqlash**



1	2	3	4	5	6

Javob:

1	2	3	4	5	6
E	G	A	B	D	F

Hurmatli hamkasb, bu mashg‘ulotni olib borishda quyidagi internet havolalaridan foydalanishingiz mumkin.

1. https://nvsd44curriculumhub.ca/wp-content/uploads/2017/09/GRASPS-Instructions.pdf

2. https://www.canberra.edu.au/research/faculty-research-centres/csc/archive/family-farm-teams-program/teachers-resources/teaching-strategies-information-sheets/Creating-authentic-assessment-taks-using-GRASPS.pdf

3. https://nvsd44curriculumhub.ca/wp-content/uploads/2017/09/GRASPS-Performance-Task-Scenario.pdf

4. https://alisonyang.com/grasps-assessment-design-and-student-metacognition/

5. https://www.youtube.com/watch?v=MgoYudNK1Dk

6. https://www.youtube.com/watch?v=xkp4F67f3Fg&t=8s

7. https://www.youtube.com/watch?v=asoAAIXy2xo

8. https://www.youtube.com/watch?v=S4G_MeUUZII